



BO'SH O'ZLASHTIRUVCHI O'QUVCHILARNING PSIXOLOGIK MUAMMOLARINI O'RGANISH

Esonova Umida Mo'minjon qizi

Namangan viloyati Pop tumani 23-maktab psixologi

Annotatsiya. Ushbu maqolada past darajadagi o'zlashtiruvchi o'quvchilar kognitiv ehtiyojlarini shakllantirishning psixologik omillari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: o'quvchilar, past darajada o'zlashtirish, kognitiv ehtiyoj, shakllantirish, psixologiya.

KIRISH

Zamonaviy ta'larning eng muhim unsurlari qadimdan shakllanib kelgan. Ta'limga maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari ta'limga jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo'llaniladigan an'anaviy kategoriylar bo'lib hisoblanadi. Aynan shu kategoriylar ma'lum predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo'yicha o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi

Bugungi kunda mamlakatimiz, shaxsan Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan uzlucksiz ta'limga tizimini isloq qilish, uni dunyo tajribalariga asoslangan xolda takomillashtirish borasida talaygina amaliy islohatlar olib borilmoqda. Xususan, uzlucksiz ta'limga tizimining eng asosiy bo'g'ini bo'lgan o'rta umumta'limga maktablarining ishini rivojlantirish borasidagi ishlar muhimdir.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlash o'qituvchidan alohida sabot va mas'uliyatni talab etadi. Shu bois bu toifa bolalar bilan shug'ullanish uchun, avvalo, yakkama-yakka suhbat o'tkazib, ularning qiziqishlarini aniqlash lozim. Maxsus jurnal tutilib, bolalarning o'zlashtirishini

muntazam monitoring qilib borilishi, o'quvchilarga qiynalayotgan fanidan alohida mashg'ulotlar daftari tuttirish kabi usullar ham samarali hisoblanadi. Shuningdek o'quvchilardagi ijobjiy o'zgarishlar rag'batlantirilishi muhim. Bo'sh o'zlashtiruvchilarining faolligini oshirish uchun ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini hamda nutqini rivojlantirish kerak.

Taniqli psixolog D.Karnegi ta'kidlaganidek, dunyoda odamlarni nimadir qilishga undaydigan birgina usul bor. Mohiyatan bu usul odamni nimadir qilishni istashga majburlash demakdir. Mashhur amerikalik faylasuf va pedagog D.Dyuuning fikriga ko'ra, inson tabiatiga xos bo'lgan eng asosiy intilish – bu "ahamiyatli – qadrli bo'lish istagi"dir.

Kichik maktab yoshi davrida faoliyatni va xulq-atvorni motivlashtirish o`ziga xos xususiyatlarga ega. "Bolalar nimani yaxshi ko'rishadi va nimani istashadi?" degan savolga S.T.Shatskiy shunday javob beradi:

1. Bolalarda til topishish instinkti kuchli rivojlangan, ular bir-birlari bilan tezda tanishib oladilar – o`yinlar, hikoyalar, o`zaro gap sotish, lofchilik kabilalar ana shunday instinkning belgilaridir.
2. Bolalar tabiatan mohir tadqiqotchi. Ulardagi tez qo`zg`aluvchanlik, oxiri ko`rinmaydigan savollar, hamma narsaga tegib ko`rish, ushlab ko`rish, tatib ko`rishga intilish sababi ana shunda.
3. Bolalar o`zini ko`rsatib turgisi keladi, o`zi haqida, o`z taassurotlari haqida gapirgisi, o`rtoqlashgisi keladi. O`z menligini tez-tez namoyish etib turishi ana shundan. Uning fantaziyalari va tasavvurlari boy bo`ladi – bu bolalar ijodkorligi instinktidir.
4. Bolalar hech narsadan bir narsa yaratishni, qandaydir g`ayrioddiy narsalarni to`qib chiqarishni yaxshi ko'rishadi.
5. Bolalarda xarakterning shakllanishida taqlidchanlik instinkti katta rol o`ynaydi.

Shularni yaxshi tushunib olsak, tashqaridan olib kiriladigan soxta stimullarni qidirib

yurishimizga to`g`ri kelmaydi.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Muayyan bir turdag'i stimullarni tahlil etish uchun amerikalik professor G.Overstritning "Inson xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish" deb nomlangan kitobida keltirilgan fikrlarga e'tiborni qaratsak, foydadan xoli bo'lmaydi. G.Overstritning ta'kidlashicha, xulq-atvorimiz va xattiharakatlarmiz zamirida biz uchun eng qimmatli bo`lgan orzularimiz yotadi. Kimnidir u yoki bu ko`rinishdagi xattiharakatlarni bajarishga undashni o`z oldigan vazifa qilib qo`yganlar uchun eng yaxshi maslahat shunday: avvalo o`z suhbatdoshingizni nimanidir qattiq istashga majbur qiling. Kimki buni uddalay olsa, butun dunyoni egallaydi, agar uddalay olmasa, yakkalanib qoladi.

Istaklarga tayaning. Bolalar nimani istashadi – bu o`qituvchining olidida turgan bosh masala bo`lib hisoblanadi. Agar biz sichqonni tutmoqchi bo`lsak, qopqonga qip-qizil bo`lib pishgan gilosni qo`ymaymiz, balki pishloq bo`lagini qo`yamiz, ya'ni bunda o`z istagimiz va ta'bimizga ko`ra emas, balki kemiruvchilarining ta'bidan kelib chiqib ish yuritamiz. Shuni mudom yodda tutishimiz va anglashimiz lozimki, faqat biz nimani istashimizgina muhim emas, balki bolalar nimani istashlari ham juda muhimdir. Uni sindirishga va qayta qurishga urinmang: u o`z xohish-istaklari uchun aybdor emas. Tarbiyaning tabiatga moslanganligi g`oyasini yodda tuting. O`qituvchining vazifasi – agar pedagogik maqsadlarga mos kelmasa, intilishlarning yo`nalishini o`zgartirish.

Napoleon shunday ta'kidlagan edi. Shu tariqa ish yuritib, u o`z soldatlarini turli xil unvonlar bilan taqdirlashda o`ta saxovatli edi. Aytishlaricha, Napoleon armiyasidagi barcha askarlarning ismini yoddan bilar ekan. Ofitserlar haqida gapirmasa ham bo`ladi. Bu o'rinda bir emas, ikkita "o'yinchoq" amaliyotda qo`llangan: biri - unvon bo`lsa, ikkinchisi – ismlarni yoddan bilish. Shunday qaraganda bu arzimas narsalar hech qanday ahamiyatga ega emasdek tuyuladi, ammo qanaqa samara bergenini aytmaysizmi? "Kichkina insoniy zaifliklar" to`liq ekspluatatsiya qilinar edi: nazarga tushish, qadrlanish, bu shon-sharafni isbotlab turadigan nishonlarni taqish hammaga ham xush yoqadi. Buning ustiga agar armiya

qo`mondoni sening ismingni bilsa va o`z isming bilan senga murojaat qilsa, ikki marotaba yoqimli.

O`quvchini maqtang. Bir bir qarashda oddiy stimulga o`xshab ko`rinsa-da, aslida uni qo`llab, muvaffaqiyatga erishish uchun quyidagilarni e'tiborga olish kerak bo`ladi:

- Maqtov tasodifiy, vaziyatli bo`lishi kerak, uni oldindan rejalashtirib yoki jadval asosida tayinlab bo`lmaydi.

- Uncha ko`ngildagidek bajarilmagan, ayniqlsa, yomon bajarilgan ishni ko`kka ko`tarib maqtamang.

- Maqtov ochiq va aniq yo`naltirilgan bo`lishi kerak. Minnatdorchilik qabul qilish har doim kishi uchun yoqimli, ammo umumiy, aniq shaxsga yo`naltirilgan qolip-andaza shakldagi yuzlab minnatdorchilik bildirilganda ham, baribir ataylab, aniq bir kishi uchun qo`lda yozilgan bir og`iz iliq so`zning o`rmini bosa olmaydi. Ko`ngliga tegmasdan tanqid qiling.

XULOSA

Demak, aytish mumkinki, o`quvchilar bilim va ko`nikmalarni to`g`ri va obyektiv tashxislash to`liq o`zlashtirish tizimini amalga oshirishning asosiy shartlaridan biri bo`lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak. – T.: O`zbekiston, 2017. – 104 b.
2. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son “Umumiy o`rta va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limining davlat ta`lim standartlarini tasdiqlash to`g`risida”GI Qarori.
3. Musurmonov A. “Ta`lim-tarbiyada xalq og`zaki ijodidan foydalanish”. T.: O`qituvchi, 1993.
4. Suvonov O.va boshqalar. «Pedagogik texnologiyalarni qo`llash davr taqozosi». «Xalq ta`limi», 2004 yil, № 5.